

Bola asrab olgan oila bilan ijtimoiy pedagogik faoliyat olib borish metodlari

Mohinur Ma'mirbekova

Nozila Qobilova

Ilmiy rahbar: S.Xaydarov

TMC instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bola asrab olgan oilalar bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: oila, vaqtinchalik asrab olish, vasiylik, bola, moslashish, bola tarbiyasi, nazorat, mutaxassis

Methods of conducting social pedagogical activities with the family that adopted the child

Mohinur Mamirbekova

Nozila Kabilova

Scientific supervisor: S.Khaidarov

TMC Institute

Abstract: This article presents ideas about social-pedagogical activities conducted with adoptive families.

Keywords: family, temporary adoption, guardianship, child, adjustment, child rearing, supervision, specialist

Oila inson tarbiyasida boshqa ijtimoiy birlashmalar bilan solishtirganda birinchi darajali rolni bajaradi. Chunki, aynan oilada individual qobiliyatlar, shaxsiy, kasbiy qiziqishlar, axloqiy normalar shakllanadi. Oila omili shaxsga hayoti davomida ta'sir etadi. Oila insonning o‘z-o‘zini belgilab olishga, uning ijtimoiy-ijodiy faolligini oshishiga yordam beradi. Oilaviy munosabatlar oliy qadriyat hisoblangan bizning respublikamizda O‘zbekistonda oilaning ijtimoiy maqomi nihoyatda balanddir va o‘z mavqe’ini hozirgacha ushlab turibdi. Biroq bu holatdagi oila inqirozi ko‘pgina oilalar, shu jumladan, o‘zbek oilalariga ham ta’sir qiladi. Manbalarda oiladagi mavjud muhit, oila a’zolarining bir-birlari bilan o‘zaro munosabatiga ko‘ra oilalarning quyidagi turlari ko‘rsatilgan:

1) tinch, baxtli oilalar (ularda vazifalar muvaffaqiyatli bajariladi, oila a’zolari o‘rtasida o‘zaro ziddiyatlar yuzaga kelmaydi; har bir ishni bajarishdan oldin

maslahatlashiladi, agarda muammolar yuzaga kelsa, birgalikda, ham jihatlikda hal qilinadi);

2) ijtimoiy xavf mavjud bo‘lgan oilalar (farzandlarni tarbiyalashda muammolar ko‘zga tashlanadi);

3) notinch oilalar (doimiy janjallar hukmron bo‘lib, farzand tarbiyasida katta qiyinchiliklar seziladi);

4) asotsial oilalar (ota-onalar axloqsiz hayot kechirishadi; oilada sanitariya-gigiena qoidalariga amal qilinmaydi, bolalar nazoratsiz qoldiriladi).

Farzandlarni tarbiyalash va ularni ijtimoiy hayotga moslashtirishda oilalarga quyidagi shakllarda yordam ko‘rsatiladi: Maslahat berish - farzandlar tarbiyasi, ularning ta’lim olishlarini tashkil etishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, samarali shakl, metod va vositalardan foydalanishga oid maslahat beriladi. Metodik yordam ko‘rsatish - ota-onalar metodik bilimlardan xabardor qilinadi, bolalarning fiziologik va psixologik rivojlanishlarini nazorat qilish, ularni to‘g‘ri parvarishlar va tarbiyalash bazasidan zarur yordam ko‘rsatiladi, oilalarning psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi, yordamga muhtoj bolalarga tibbiy, psixologik va ijtimoiy yordam ko‘rsatiladi. Ijtimoiy himoya qilish - xavf mavjud bo‘lgan, notinch yoki asotsial oilalarda bolalar ota-onalar giyohvand, ichuvchi, shafqatsiz ota-onalardan himoya qilinadi; bolalarni anomal hulqli ota-onalardan ajratib olish, ularni maxsus ta’lim dargohlariga joylashtirish shuningdek, farzandlikka berish va bola haqidagi hujatlarni rasmiylashtirish ishlarini bajaradi.

Vasiylik vazifasi bolaning tarbiyasi va rivojlanishi, uning huquqlarini himoya qilish hisoblanadi. Vasiy balog‘at yoshiga yetmagan bolada mavjuda bølgan mulkni özlashtirishga hamda undan foydalanishga haqli emas. Bola qilib olgan oila umuman olganda bolaning, ya’ni huquqiy va haqqoniy oilasi hisoblanadi, bu yerda u o‘z bolasi kabi huquqqa ega bo‘ladi. Bola uni oilasiga olgan ota-onalarining familiyasini olishi mumkin va hatto yangi ism ham bola qilib olgan oilaning bolaning hamma huquq va majburiyatlar haqiqiy o‘z farzandlari huquq va majburiyatlariga tenglashtiriladi.

Asrab olishning yana bir turi - vaqtinchalik asrab olish. Vaqtinchalik asrab oladigan oila bolalikni himoya qilish usuli sifatida bir qator rivojlangan mamlakatlarda juda ham keng tarqalgan usul hisoblanadi. Bu O‘zbekistonda hozircha qo‘llangan emas. Vaqtinchalik asrab olish oilasini vasiylik oilasi yoki bola qilib oluvchi oiladan farqi, birinchi navbatda professional mutaxassislar oilasi bo‘ladi. Agarda chet el tajribalariga murojaat etsak, unda vaqtinchalik asrab oluvchi oilaning bir necha belgilarini ko‘rsatib berish mumkin:

Ota-onalarning ma’lum professional malakalari bo‘lishi kerak.

Oila kerakli profissional-pedagogik tayyorgarlikka ega bo‘lishi kerak.

Bunday oilaning xizmatlariga xizmat haqi to‘lanadi.

Bolaning oilada bo‘lishi asrab olingan ota-onalarning ish stajlari sifatida hisobga olinadi. Asrab olgan ota-onalarning ish vaqtлari o‘z shaxsiy uylarida o‘tadi. Bo‘lajak asrab oladigan oiladagi ota-onalarni o‘rganish,

Diagnostik (boshlang‘ich diagnostika) anketa tuzish, suhbat o‘tkazish.

Bola joylashtirilgan muassasalar va oilalarni borib ko‘rish (krizis oila, bolalar uyi va boshqalar). Vositachilik, kuzatish suhbat. Bo‘lajak oilani va uning yaqinlarini o‘rganish. Diagnostik (chukur diagnostika). Anketa tuzish, test sinovlari, suhbat, ishontirish, Hujjatlarni o‘rganib chiqish. Bolani asrab oluvchi oilaga joylashtirish: asrab oluvchi ota- onalarni chuqur o‘qitish kurslarini tashkil qilish.

Farzandlikka olgan oila bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat bosqichlari va mazmuni.

1. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat bosqichlari
2. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat vazifalari
3. Farzandlikka oluvchi oilani qidirish
4. Axborot berish
5. Bo‘lg‘usi qabul qiluvchi ota-onalarni o‘rganish

Bola bo‘lgan muassasa va oilalarga tashrif buyurish (bolalar uyi, inqirozli oila) va boshqalar. Bo‘lg‘usi bola qabul qiluvchi oilani o‘rganish. Boshlang‘ich ta’lim: ma’ruza qilish, hikoya, suhbat o‘tkazish, video-filmlar ko‘rsatish. Bolani oilaga joylashtirish, ota-onalarga chuqur ta’lim berish. Tashhis qo‘yish ilk Ijtimoiy-pedagogik faoliyat metodlari Anketa so‘rovlari, suhbat, intervyu o‘tkazish , kuzatuv, tashhis qo‘yish (guruhashgan) test o‘tkazish, hujjatlarni o‘rganish, ta’lim berish, ma’ruza, mashg‘ulotlar Patronaj Kerakli metodlardan o‘z o‘rnida foydalanish kerak. Bola asrab olish borasidagi ijtimoiy-pedagogik faoliyat ijtimoiy ta’minot bo‘limlarining xodimlari, shifokorlar, psixologlar, defektologlar va huquqshunoslar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Goziyev E.G. Mamatov M.M. va boshkalar "O‘spirin psixologiyasi" ToshD.U. 1992.
2. Goziyev E.G Utanov B "Xamkorlik psixologiyasi" T., Tosh D.U. 1992
3. Lyaudis V.L. - Metodika prepodavaniya psixologii, iz.vo 2000.
4. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O‘quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o‘qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.
5. Khaydarov S, A. (2023). Using technologies in teaching social sciences. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ), (pp. 305-309). 11(9).

6. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o'qituvchi o'zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67. <https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-modern-education/article/view/24652>
7. Ҳайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.
8. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).